

TALABALARDAGI ICHKI NIZO NAMOYON BO`LISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Mirzayeva Umida Bosit qizi

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi

“Pedagogika va psixologiya” o`qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14799513>

Annotatsiya: Talabalardagi ichki nizoga ta'sir qiluvchi omillar, o`quv faoliyatida yuzaga keluvchi nizolar, uning sabablari va ularni oldini olishning psixologik yo`llari, nizolar turini o`rganishning ilg`or ilmiy konsepsiyalari, ilmiy yondashuvlari hamda xorij psixologiyasida amalga oshirilgan tadqiqotlar va ularning mazmuni kabilar batafsil yoritilgan.

Kalit so`zlar: Ichki nizo, nizoli vaziyat, hamkorlik, munosabat, xulq-atvor, shaxs, qadriyatlar, o`z-o`zini anglash

Talabalardagi ichki nizo (konflikt) — bu shaxsning ichki dunyosida qarama-qarshi istaklar, hissiyotlar yoki qadriyatlarining to`qnashuvi natijasida yuzaga keladigan psixologik holatdir. Bunday nizolar talabalik davrida o`zini anglash jarayoni, kelajakda o`z kasbining yetuk mutaxassisi bo`lishi, jamiyatdagi o`rni va akademik bosimlar natijasida sodir bo`ladi. Ichki nizoning birinchi sababi o`zini anglash va identifikatsiya misolida yaqqol namoyon bo`ladi. Xorijiy tadqiqotlarda talabalik davrida ichki nizolarni kelib chiqishini turli sabablari o`rganilgan. Xususan Eriksonning psixosotsial rivojlanish nazariyasida talabalik davrini “Identifikatsiya va ro`l chalkashuvi” bosqichi deb atagan. Talabalar bu davrda o`z shaxsiyatlarini aniqlash uchun turli tajribalar bilan yuzlashadilar. Agar identifikatsiya jarayoni muvaffaqiyatli kechmasa, ichki nizolar paydo bo`ladi Albert Bandauraning O`ziga ishonch nazariyasiga ko`ra “Talabaning o`z qobiliyatiga ishonchi ichki nizolarni yengishda muhim muhim omil hisoblanadi.” Tashqi omillarga emas, balki o`z kuchiga tayanish stress va ichki qarama qarshiliklarni kamaytiradi.

“Nizo” so`zi, psixologiya fanida ko`pchilik tadqiqotchilar tomonidan salbiy talqin etiladi. Biroq, nizo zaruriy xususiyatga ega, chunki uningb ijobiy yechimini izlash hamda paydo bo`lish sabablarini tahlil qilish keng ma`noda, insonlar o`rtasida yuzaga kelgan qarama qarshiliklarini bartaraf etish bilan bog`liq intellectual harakatlarni o`z ichiga oladi. T.F.Bazilievichning aytishicha, talabalar guruhi yoshlardan iborat bo`lganligi sababli, ularga xos nizoli xulqni o`rganishda avvalombor, yosh xususiyatlarini hisobga olish kerak. Chunki bu davrda inson nizolarga moyil bo`ladi. Shuning uchun, talabalar shaxsida nizoli xulq namoyon bo`lishining psixologik xususiyatlarini aniqlashda, birinchi navbatda ularning yosh xususiyatlarini, individual –psixologik xususiyatlari, aqliy kamolot imkoniyatlarini ham hisobga olish maqsadga muvofiqdir B.G.Ananov o`zining “Inson psixologiyasi” nomli asarida yozishicha, talabalik davri shunday bir davrki, unda insonning kamolotdan kamolotga o`tish davri yuz beradi. Ya`ni nizolarga va turli vaziyatlarga munosabat bildirishning eng muhim bosqichi hisoblanadi.

Bundan tashqari talabalarda ichki nizoning paydo bo`lishining yana bir omili bu Akademik bosimning mavjudligi bilan bog`liq hisoblanadi. Bu bosimning kuchayishi talabaning psixologik holatiga salbiy ta`sir ko`rsatib, motivatsiyaning pasayishi, qaror qabul qilishdagi o`ziga ishonchni zaiflashuviga olib keladi. Talabalar ko`pincha qaror tanlashda qiyin vaziyatga tushadilar (masalan o`qish yo`nalishini tanlash) Bu nizo tanlovdan keyingi pushaymonlik va past motivatsiyaga olib kelishi mumkin. Akademik bosim talabalarda ichki

nizo paydo bo'lishining asosiy omillaridan biri sifatida xorijiy tadqiqotlarda keng o'rganilgan. Tadqiqotlar akademik yuklamaning oshishi yuqori kutilmalar va raqobat muhiti ichki psixologik muammolar, stress va identifikatsiya inqirozlariga olib kelishini ko'rsatmoqda. Lazarus va Folkman stressni insonning tashqi bosim va ichki resurslar o'rtasidagi nomutanosiblik sifatida ta'riflaydi. Akademik bosim talabalarda o'z-o'zini anglash va stressga qat'rshi kurashish mehanizmlarini sinovdan o'tkazadi. Yuqori bosimli muhitda stress bilan samarali kurasha olmagan talabalar ichki nizolarga duch kelishadi. Buyuk Britaniyada olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, talabalar orasida akademik yuklama va muvaffaqiyatsizlik qo'rquvi depressiya va ichki nizolarga olib keluvchi asosiy omil sifatida topilgan.

Mohiyatan, talabalik davri shaxs rivojlanishing maxsus davri bo'lib, u hayotiy qadriyatlarni qayta baholash bilan bog'liq. Ta'lim jarayonidagi nizolar ob'ektiv harakterga ega bo'lib, u oddiy hodisa sifatida qaralishi va sog'lom psixologik iqlim yaratilishiga xizmat qilishi kerak. Ya'ni zamonaviy ta'lim sharoitlari nizolar va va qarama qarshiliklarga asoslangan pedagogik texnologiyalardan tashkil topishi lozim Umuman olganda, nizolar inson harakterini shakllantirishda katta ro'l o'ynaydi. Talabaning xarakterologik xususiyatlari, ko'pincha jamoani shakllantirishga keng hissa qo'shadi.

Xulosa sifatida ta'kidlash mumkinki, talabalardagi ichki nizolarni ijobiy yechimga yo'naltirish, ular duch kelayotgan bosim va qarama-qarshiliklarni tahlil qilish shaxsiy va akademik muvaffaqiyatga erishishda muhimdir. Identifikatsiya jarayonini qo'llab-quvvatlash, stressni boshqarish texnikalarini o'rgatish va akademik bosimni kamaytirish talabalarda ichki nizolarni kamaytirishga xizmat qiladi. Shu sababli ularni inkor qilish emas, balki ijobiy yo'naltirish orqali shaxsiy rivojlanishni rag'batlantirish maqsadga muvofiqdir.

References:

1. Мамина В.П. Выбор механизмов психологической защиты студентами медицинского вуза с различным уровнем адаптированности // Общество: социология, психология, педагогика. – 2015. – № 4. – С. 45-48.
2. Крот А.Ф. Механизмы психологической защиты: учебно-методическое пособие. – Минск: Белорусский государственный медицинский университет, 2015. – 22 с.
3. Грановская Р.М. Психологическая защита. – СПб.: Речь, 2000. – 507 с.
4. Мельник С.Н. Психология личности. – Владивосток, 2004. – 97 с.
5. Мак-Вильямс Н. Психоаналитическая диагностика. Понимание структуры личности в клиническом процессе. – М.: Класс, 2010. – 480 с.
6. Болонева Ю.М., Кобытова Г.С. Механизмы психологической защиты в исследованиях З. Фрейда // Сб. науч. тр. – Томск: Томский государственный университет, 2004. – С. 354–357.
7. Фрейд А. Психология «Я» и защитные механизмы. – М.: Педагогика, 1993. – 143 с.
8. Botirovna, Nurbojeva Habiba. "Systematic methods of development of national values in students." (2022).